

## ONA TILI FANINI O'QITISHDA ZAMONAVIY YONDASHUVLARNING O'ZIGA XOS AHAMIYATI

*Toshkent viloyati Nurafshon shahar*

*26-umumiy o'rta ta'lim maktabi ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi*

*Abduazizova Muhayo Nabiyevna*

**Annotatsiya.** Ona tili ta'limi oldiga ijtimoiy jihatdan mukammal shakllangan, mustaqil fikrlay oladigan, nutq va muloqat madaniyati rivojlangan, savodxon shaxsni kamol toptirish maqsadi qo'yiladi. O'quvchi yoshlarni dars mashg'ulotlarida ta'lim standartlari bo'yicha qo'yilgan me'yorlarni egallashlari uchun qo'llanadigan zamonaviy metodlar o'z o'rnida ijobiy natijalarga zamin bo'la oladi

**Kalit so'zlar:** pedagogik texnologiya, ta'lim standarti, elektron darslik, metod, usul.

*Birovni o'qitadigan, tarbiya qiladigan inson avvalo o'zi har tomonlama  
barkamol bo'lmog'i shart.*

***Islom Karimov***

Bizning xalqimiz azal-azaldan tarbiya masalasiga katta e'tibor bilan bilan qaragan. Bugun biz ustozlar ta'lim-tarbiya jarayonida tinimsiz izlanib, jamiyatimiz taraqqiyoti yo'lida yangicha zamonaviy dars mashg'ulotlari, ijodiy jarayon orqali farzandlarimizni chuqur bilim egalari qilib tarbiyalamog'imiz darkordir. O'qituvchi dars mashg'ulotiga tayyorgarlik ko'rar ekan ta'lim standartlariga amal qilgan holda faoliyat olib boradi. Bugungi kun o'qituvchidan ijodkorlikni talab qiladi. Dars mashg'ulotimizda o'z o'quvchilarimizda ilg'or g'oyalar, zamonaviy pedagogik texnologiyalar bilan bilim berar ekanmiz, ona zaminni e'zozlashga uni ko'z qorachig'idek asrashga undab yashamog'imiz lozim. Ona tili ta'limi oldiga ijtimoiy jihatdan mukammal shakllangan, mustaqil fikrlay oladigan, nutq va muloqat

madaniyati rivojlangan, savodxon shaxsni kamol toptirish maqsadi qo'yiladi. O'quvchi yoshlarni dars mashg'ulotlarida ta'lim standartlari bo'yicha qo'yilgan me'yorlarni egallashlari uchun qo'llanadigan zamonaviy metodlar o'z o'rnida ijobiy natijalarga zamin bo'la oladi. Dars o'tishning keng va zamonaviy metodlari, usullari rang-barang. Bu usullardan foydalanishda o'qituvchidan ijodkorona yondashuv talab etiladi. Dars mashg'ulotining shakllari borasida ta'lim standartlari xilma-xillikni talab etadi. "Sahna", "Muloqat", "Bahsmunozara", shakllari o'qituvchini o'z ustida mustaqil ishlashga undaydi. Darsning mazmuni va xarakteriga qarab xalqimizning boy ma'naviy merosidan, ma'naviy qadriyatlaridan samarali foydalanish. O'tilayotgan mavzuning mazmuniga bog'liq holda mustaqil yurtimizdagi o'zgarishlardan o'quvchi talabalarni xabardor qilish. Darsda birinchi Prezidentimiz Islom Karimovning hamda Prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyevning ta'lim sohasidagi fikrlari, yurtimiz kelajagi bo'lgan yoshlariga, farzandlarimizga qarata aytgan murojaatlaridan o'z o'rnida foydalanish ijobiy natijalarga yo'l ochadi. Dars o'qituvchi va o'quvchining ijobiy hamkorligiga asoslanishi lozim. Shundagina o'quvchilar mustaqil erkin fikrlay oladilar, irodalari tarbiyalanadi. Nutq madaniyati rivojlanadi. Muammoli vaziyat izlanishlar orqali o'z yo'lini topa oladilar. Bu borada adabiyot fanining o'rni va ahamiyati katta. Shu bois o'quvchilarni mutolaaga o'rgatish, oilaviy kitobxonlikni yo'lga qo'yish uchun adabiyot o'qituvchilarining ota-onalar bilan oilada kitob o'qish, bu borada muhokama o'tkazish, natijani kuzatish kabi masalalarda hamkorlik o'rnatish yaxshi natija berishi turgan gap. Shuningdek, 5-6-sinflarda milliy, qardosh va chet el yozuvchilarining sarguzashtlarga boy badiiy asarlarini o'qish va bolalarning taassurotlari bo'yicha suhbat uyushtirish hamda xulosa chiqarishga o'rgatish maqsadga muvofiq. O'quvchilarni kitobga qiziqtirishning yana bir samarali usuli bu - darsni musobaqa tarzda tashkil etishdir. "Kim ko'p badiiy asar o'qigan?", "Kim she'ni ifodali yoddan aytadi?", "Kim ko'p dostonidan parcha yod

olgan?", "Kim ko'p g'azal yod biladi?", "Kimning shaxsiy ijodiy ishlari chop etilgan?" mavzulariga sinflararo musobaqalar tashkil etilsa, o'quvchilar, albatta o'z iqtidorlarini namoyish etishga harakat qiladilar. Hayot darligi deya atalmish adabiyot darslarida ifodali o'qishga katta e'tibor qaratilishi, o'qituvchi matnni bolalar qalbiga kirib boradigan darajada his qildirib, ifodali, ta'sirchan tarzda o'qishi, o'quvchi hissiyoti, tuyg'ularini qo'zg'ata olishi, atoqli san'atkorlar ijrosida o'qilgan, ertak qahramonlarining video lavhalarini taqdim qilishi va bolalarni shunday o'qishga o'rgatishi nafaqat fanga qiziqishni orttiradi, balki bola qalbiga ruhiy orom beradi, estetik didini o'stiradi, she'riyatga, kitob mutolaasiga mehr uyg'otadi. O'quvchilarni dars jarayonining faol ishtirokchilariga aylantira olish. Bolalarga mustaqil fikr bildirish, rad etish, isbot qilish, o'z fikrini himoya qilish imkonini yaratish. Sinfdan tashqari tadbirlarda o'rganilgan asarlardan parchalarni sahnalashtirish, rollarga bo'lib o'qish, she'rxonlik, ruboiyxonlik kabi adabiy kecha va musobaqalar, uchrashuvlar tashkil qilish. Xulosa o'rnida aytishimiz mumkinki, elni ma'rifat asraydi. O'qituvchi-ziyoli inson, u nafaqat yosh avlodga bilim berishi, balki o'zining yurishturishi, kiyinishi, axloq-odobi, jamiyatdagi o'rni bilan ularga shaxsiy namuna, ibrat ham bo'lishi zarur. Shular bilan bir qatorda bugun o'qituvchi zimmasiga joylarda hukumatimiz qarorlari, davlatimizning ichki va tashqi siyosati mazmun-mohiyatini aholiga, o'quvchi-yoshlarga to'g'ri tushuntirish, ularni ezgu maqsadlar sari ruhlantirish singari muhim vazifalar ham yuklanganini unutmasligimiz, ularni bajarishga bor bilim-tajribamizni safarbar etishimiz kerak.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Abdusamatov R. O'zbek tilida gap bo'laklarining noamaliy mavqeyi masalasi. AKD. Samarqand, 2004.
2. Berdaliev A. O'zbek tili ergash gapli qo'shma gaplarida sintaktik aloqa va sintaktik munosabatlar. -T., Fan, 2008.
3. Mamajonov A. Qo'shma gap stilistikasi. -T., O'qituvchi, 1990.
4. Mahmudov N., Nurmonov A. O'zbek tilining nazariy grammatikasi. -T., O'qituvchi, 1995.